

## **Agentlikning yil yakunlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani**

Joriy yilning 29-yanvar kuni O’zbekiston Milliy matbuot markazida Agentlikning 2015-yildagi ish faoliyati yakunlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o’tdi.

Mazkur anjumanni Agentlik boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Shovahobov olib borib, jurnalistlarga Agentlikning 2015-yildagi faoliyati davomida amalga oshirilgan ishlar, qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, ijobiy ko‘rsatkichlar, bugungi kunda avtomobil va daryo transporti sohasida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan yangi rejalar haqida ma’lumot berdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 9-martdagи “Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining alohida turlarini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi PQ-303-sonli qarori chiqgunga qadar jismoniy shaxslarni o‘z tarkibiga biriktirib faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar soni 314 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilning 1-yanvar xolatiga ularning soni 2889 taga yetdi va 9.2 marttaga ortdi, - deydi Agentlik boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Shovahobov. - Agar, avtotransport sohasida litsenziyalashdan 2014-yil mobaynida 31 mld. 549 mln. so‘mlik davlat boji undirilgan bo‘lsa, 2015-yilning hisobot davri yakuni bilan jami 33 mld. 887 mln. so‘mlik davlat boji undirildi, o‘sish qariyib 7.4 foizni tashkil etadi.

Matbuot anjumanida ma’ruzachi, Agentlik tomonidan 2015-yil mobaynida avtomobil va daryo transporti sohasida me’yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish borasida rejali ishlar amalga oshirilganligini ta’kidlab o’tdi. Jumladan, Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining 1 ta qarori qabul qilindi, 4 ta me’yoriy hujjat Adliya vazirligida va 3 ta me’yoriy hujjat “O’zstandart” agentligida ro‘yxatdan o‘tkazilganligini qayt etib, shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasining 2 ta (shundan 1 tasi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan) qonuniga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida Qonun loyihalari va Vazirlar Mahkamasining 7 ta (shundan 5 tasi tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishib, Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilgan) qarori loyihalari, Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun 1 ta me’yoriy hujjat ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilmoxda. Bundan tashqari 3 ta me’yoriy hujjat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga tasdiqlash uchun kiritilganligini aytib o’tdi.

Asosiy ma’ruzadan so‘ng, ommaviy axborot vositalari vakillari sohaga doir bir qator savollar bilan ham murojaat qildilar. Jumladan, ular Toshkent -

Samarqand yo‘nalishida yangi va zamonaviy avtobuslarni ko‘paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, Farg‘ona vodiysi shaharlari va Toshkent shahrini bog‘lovchi yo‘nalishlar borasida amalga oshirilgan ishlar va ko‘zda tutilayotgan rejalar, shaharlararo yo‘nalishlarda qatnovchi yengil taksilarni tartibga keltirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda noqonuniy taksilarning faoliyatiga qachon chek qo‘yilishi mumkinligi no‘g’risida qator masalalar bilan qiziqdilar.

Matbuot anjumanida quyidagi raqamlar ham keltirib o‘tildi:

- Yil davomida tashuvchilar tomonidan tijorat asosida foydalanish maqsadida 587 ta yuk avtomobili, 85 ta mikroavtobus va

445 ta (shundan 138 tasi “Damas” rusumli) yengil avtomobilari sotib olinganligi;

- 2015 yil davomida respublika bo‘yicha jami 133 ta ochiq tender o‘tkazilgan bo‘lib, ularda 1116 ta yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari joylashtirildi. Shundan 205 ta shahar ichidagi yo‘nalishlarini joylashtirish bo‘yicha 33 ta tender, 799 ta shahar atrofi va 47 ta shaharlararo-viloyatlar ichidagi yo‘nalishlarni joylashtirish bo‘yicha 92 ta tender, 65 ta shaharlararo-viloyatlararo yo‘nalishlarni joylashtirish bo‘yicha 8 ta tender o‘tkazilganligi;

- 2015 yil davomida tashuvchilar tomonidan Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan “ISUZU” rusumli avtobuslardan Qashqadaryo viloyatida 78 ta, Toshkent viloyatida 64 ta, Sirdaryoda 59 ta, Samarqandda

47 ta, Buxoroda 35 ta, Xorazmda 27 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 21 ta, Surxondaryoda 19 ta, Farg‘onada 18 ta, Toshkent shahri va Andijonda 13 tadan, Jizzaxda 11 ta va Navoiy viloyatida 8 ta jami 413 ta yangi avtobuslar lizing va bank kreditlari asosida sotib olinib, shahar va shahar atrofi yo‘nalishlarida xizmat ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilganligi;

- 2015 yil davomida Agentlik va uning hududiy bo‘limlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga 2785 ta litsenziya va 182190 ta litsenziya varaqlari berilib, 2016 yilning 1 yanvar holatiga litsenziyalangan avtomobillar soni 90024 tani tashkil etganligi.

Anjuman so‘ngida Sh.Shovahobov jurnalistlarni sohada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish borasida hamkorlik qilishga chaqirdi. Shuningdek, mehmonlar ham xalq manfaati yo‘lidagi bunday hamkorlikka hamisha tayyor ekanliklarini bildirishib, o‘zlarining barcha

savollariga batafsil mutaxassis javobi berilgani uchun o‘z minnatdorchiliklarini izhor etdilar.

Matbuot anjumanida respublikamizning yetakchi matbuot nashlari, radio va teledasturlar muxbirlari, Toshkent shahar va viloyat xokimligining barcha yo‘lovchilar tashish transporti, litsenziyalash va muvoflashtirish departamentining xodimlari hamda Agentlik faoliyatining turli yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislari ishtirok etishdi.